


## 2019-yilning yanvar-dekabr oylarida Sirdaryo viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha, 2019-yilning yanvar-dekabr oylarida viloyat korxonalarini tomonidan 7217,0 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarish fizik hajm indeksi\* 102,4 % ni tashkil etdi.


Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish – 94,7 % ga, ishlab chiqaradigan (qayta ishslash) sanoat – 5,0 % ga hamda tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishslash – 47,6 % ga o'sishi kuzatildi.

### 2019-yilning yanvar-dekabr oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi



\* *Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi* ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

## 2019-yilning yanvar-dekabr oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlarini sanoat ishlab chiqarishning o'sishiga qo'shgan hissasi



### *Tog`-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash.*

Tog`-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarini tomonidan 2019-yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlari hajmi 23,5 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,3 % ni tashkil etdi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan tog`-kon sanoatida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajim indeksi 147,6 % ni tashkil etganni kuzatish mumkin.




### Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati).

2019-yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 4043,4 mlrd.so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 56,0 %ini tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmog'ining ulushi 6,0 % ni (2018-yil yanvar-dekabr oylarida – 4,3 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 5,3 % (6,2 %), o'rta-quyi texnologiyali – 19,8 % (14,0 %) va quyi texnologiyali – 68,9 % (75,5 %) tashkil etdi.

#### *Ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bo'yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi %*





Jami sanoat tarkibida ichimliklar ishlab chiqarish – 1,5% (2018-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi o'sishi 67,0 %), yog'och va po'kak buyumlar ishlab chiqarish- 0,1 % (9,5), qog'oz va qog'oz mahsulotlari ishlab chiqarish – 0,1 % (79,0), mebel ishlab chiqarish – 0,4 % (18,6), asosiy farmasevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish – 3,4 % (63,1 %), boshqa nometal mineral mahsulotlari ishlab chiqarish sohasi – 8,0 % (11,5 %), elektr uskunalar ishlab chiqarish -0,02 % (72,2) va boshqa tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish sohasi - 1,5 % (14,8 %) ni tashkil etdi.

Shu bilan birga, ishlab chiqarish sanoatida o'tgan yilning shu davriga nisbatan solishtirganda yumshoq bug'doy va spelta uni – 102,5%, boshqa tolali materiallardan(yog'ochdan tashqari) olingan selluloza – 187,5, etilen polimerlardan qoplar va sumkalar – 330,4%, yo'l qoplamlari uchun asfaltli aralashmalar – 129,3% ga oshdi.

Texnologik jihozlarni kapital qayta tiklash ishlari sanoat sohasida xizmatlar ko`rsatish hajmini oshirish imkonini berib, trikotaj mahsulotlarini ishlab chiqarish jarayonning bir qismini bajarish (2018-yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan 196,2%), tayor metal buyumlarini ta'mirlash va tehnik xizmat ko`rsatish (104,9 %) ni tashkil etdi.

**Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdag'i sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

<b>2018-yil yanvar-dekabrda ishlab chiqarilgan</b>	<b>Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari</b>	<b>2019-yil yanvar-dekabrda ishlab chiqarilgan</b>	<b>2018 yil yanvar- dekabrga nisbatan, %</b>
<b>Sellyuloza, ming t 90%</b>			
778,6		1460,0	187,5 
36,3		37,2	102,5 
1252,0		804,4	64,2 
4136,6		2975,8	71,9 
45,4		27,3	60,1 
71,7		42,8	94,9 
43,6		25,3	58,7 
9,4		4,8	51,0 
1076,8		537,5	49,9 

## **Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash.**

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 2952,4 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 40,9 % ni) tashkil etdi.

2019-yilning yanvar-dekabr oylarida sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalash o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 92,8 % ni tashkil etgani kuzatildi.



### **Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdag'i sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

2018-yil yanvar-dekabrdagi ishlab chiqarilgan	Sanoati mahsulotlari	2019-yil yanvar-dekabrdagi ishlab chiqarilgan	2018-yil yanvar-dekabrga nisbatan, %
---	----------------------	---	--------------------------------------

#### **Elektroenergiya, mln.kVt/s**

16189,1



14974,5

92,5



#### **Issiqlik energiyasi, ming Gkal**

223,8



233,9

104,5





**Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish.**

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 197,7 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 2,7 % ni) tashkil etdi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar – 4,7 % ga, oqova suvlarni yo'qotish, shahar ho'jaligining qayta foydalanishga yaroqsiz havfsiz chiqindilarini yig'ish bo'yicha xizmatlar – 3,7 martaga oshganligi kuzatildi.

### **Suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdag'i sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

2018-yil yanvar-dekabrda ishlab chiqarilgan	Sanoati mahsulotlari	2019-yil yanvar-dekabrda ishlab chiqarilgan	2018-yil yanvar-dekabrga nisbatan, %
---	----------------------	---	--------------------------------------

**Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash xizmatlari, mln so`mda**

12969,4



13580,2

104,7 ↑

**Shahar ho'jaligining qayta foydalanishga yaroqsiz havfsiz chiqindilarini yig'ish bo'yicha xizmatlar, mln so`mda**

2954,5




10782,6

365,0 ↑

## Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish.

Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 2699,5 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2018-yilning mos davriga nisbatan 6,1 % ga o'sishni ta'minladi, jami sanoatdagi ulushi esa 37,4 % ni tashkil etdi.

### 2019-yilning yanvar-dekabr oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish tarkibi va 2018 yil yanvar-dekabrga nisbatan o'sishi sur'ati



2018-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan iste'mol tovarlari tarkibida nooziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish ulushining 63,7 % dan 2019-yilning yanvar-dekabr oylarida 61,8 % ga oshishi kuzatilmogda.

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida sharob va aroq mahsulotlari va pivo 10,1 % ni (2018-yil yanvar-dekabrga nisbatan 5,2 %) tashkil etdi.

**Hududlar bo'yicha 2019-yilning yanvar-dekabr oylarida iste'mol tovarlari  
ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**

	Mlrd. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, %	2018 yil yanvar-dekabrga nisbatan o'sish, %
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>2699,5</b>	<b>100,0</b>	<b>106,1</b>
Guliston shahri	486,7	18,0	110,8
Shirin shahri	23,5	0,9	92,4
Yangiyer shahri	154,5	5,8	126,5
<i>tumanlar:</i>			
Boyovut tumani	252,3	9,3	87,6
Guliston tumani	75,9	2,8	100,4
Mirzaobod tumani	265,6	11,8	96,8
Oqoltin tumani	82,7	3,1	104,2
Sardoba tumani	73,8	2,7	104,1
Sayhunobod tumani	161,4	6,0	105,7
Sirdaryo tumani	1005,3	35,2	113,7
Xovos tumani	117,8	4,4	94,3


## Xorijiy investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining ishlab chiqarilishi

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 1664,1mlrd. so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi.


Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 23,1 % ni tashkil etdi.

### Xorijiy investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining sanoatning umumiy hajmidagi ulushi, %.

2018 yil  
yanvar-dekabr



2019 yil  
yanvar-dekabr




Xorijiy investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar



Boshqa korxonalar

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarning umumiy hajmida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari ulushi – 95,4 % va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalarining ulushi - 4,6 % ni tashkil etdi.

### Xorijiy investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining sanoatning umumiy hajmidagi ulushi, %




**Hududlarning sanoat ishlab chiqarishi.**

	<b>2019 yil yanvar-dekabr, mlrd. so'm</b>	<b>2018 yil yanvar-dekabrga nisbatan, %</b>
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>7217,0</b>	<b>102,4</b>
Guliston shahri	1013,1	118,5
Shirin shahri	2804,5	108,9
Yangiyer shahri	283,9	116,6
<i>tumanlar:</i>		
Boyovut tumani	273,6	107,2
Guliston tumani	122,6	103,4
Mirzaobod tumani	288,3	95,6
Oqoltin tumani	181,3	118,7
Sardoba tumani	263,7	98,3
Sayhunobod tumani	304,0	109,2
Sirdaryo tumani	1525,8	109,1
Xovos tumani	156,2	113,5

Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Shirin shahri (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmning 38,9 %), Sirdaryo tumani (21,1 %), Guliston shahri (14,0 %), Sayhunobod tumani (4,2 %), Yangiyer shahri (3,9 %) va Boyovut tumani (3,8 %) hissasiga to'g'ri kelmoqda.

**2019-yil yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha sanoat ishlab  
chiqarish fizik hajm indeksi 2018-yil yanvar- dekabr  
oylariga nisbatan %**




Hududlarning ishlab chiqarish salohiyatini oshirish bo'yicha amalga oshirilayotgan izchil chora-tadbirlar natijasida, Guliston shahri (2018-yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 118,5 %), Shirin shahri (108,9 %), Oqoltin tumani (118,7 %), Yangiyer shahri (116,6 %), Sirdaryo (109,1 %) va Xovos (113,5 %) tumanlarida sanoat ishlab chiqarish hajmlari sezilarli darajada oshishiga imkon berdi.

Shu bilan birga, Yangiyer shahri (2018-yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan 126,5 %), Sirdaryo tumani (113,7 %), Sayhunobod tumani (105,8 %), Guliston shahri (110,8 %), Oqoltin (104,2 %) va Sardoba tumanlarida (104,1 %) iste'mol tovarlarini ishlab chiqarish sezilarli darajada oshdi.

Shuningdek, iste'mol tovarlari hajmining eng katta ulushi Sirdaryo tumani (viloyat iste'mol tovarlari hajmida 35,2 %), Guliston shahar (18,0 %), Mirzaobod (11,8 %) va Boyovut (9,3 %) tumanlarida ishlab chiqarildi.

**2019-yil yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha iste'mol tovarlari  
ishlab chiqarishining, 2018-yil yanvar-dekabr oylariga  
nisbatan o'sishi %**




Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanish tahlili Shirin shahrida (150780,0 ming so'm), Guliston shahrida (11281,5 ming so'm) va Sirdaryo tumanida (12023,3 ming so'm) o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (8610,1 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Viloyat bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol tovarlari ishlab chiqarilishi 3220,6 ming so'm bo'lgani holda Sirdaryo tumanida – 7495,9 ming so'mni, Guliston shahrida – 5420,3 ming so'mni, Mirzaobod tumanida - 4422,5 ming so'mni va Yangiyer shahrida – 3600,3 ming so'mni tashkil etdi.

**2019-yil yanvar-dekabr oylarida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan  
sanoat mahsulotlari va istemol mollari ishlab chiqarish,  
ming so'm**

	<b>Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish</b>	<b>Istemol mollari</b>
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>8610,1</b>	<b>3220,6</b>
Guliston shahri	11281,5	5420,3
Shirin shahri	150780,0	1266,7
Yangiyer shahri	6617,2	3600,3
<i>tumanlar:</i>		
Boyovut tumani	2132,8	1966,2
Guliston tumani	1714,8	1061,3
Mirzaobod tumani	3988,2	4422,5
Oqoltin tumani	3521,4	1605,8
Sardoba tumani	4037,8	1130,1
Sayhunobod tumani	3973,4	2109,2
Sirdaryo tumani	12023,3	7495,9
Xovos tumani	1650,8	1244,9

**2019-yil yanvar-dekabr oylarida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan  
sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish va istemol mollarining o'sishi  
2018-yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan %**




**Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi**

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan 3403,5 mlrd. so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi.

Hisobot davrida kichik biznesning umumiyl ishlab chiqarishdagi ulushi 47,2 % ni tashkil etdi.

**2019-yilning yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha yirik korxonalar  
va kichik tadbirkorlik sub'ektlarining sanoat mahsulotlari ishlab  
chiqarishdagi ulushi, %**




Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Mirzaobod tumanida (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Sirdaryo tumanida (82,3 %), Guliston shahrida (78,9 %), Sardoba tumanida (86,0 %), Guliston tumanida (66,4 %), Sayxunobod tumanida (71,1%), va Boyovut tumanida (68,5 %) kuzatildi.

Shu bilan birga, eng kichik ulush Xovos tumanida (59,2 %), Oqoltin tumanida (43,6 %) va Shirin shahrida (0,9%) kuzatildi.

## Faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari


Bugungi kunda Viloyatda 1736 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 488 tasi (faoliyat yuritayotgan korxonalar umumiy sonining 28,1 %) Guliston shahriga, 307 tasi (17,7 %) Sirdaryo tumaniga, 139 tasi (8,0 %) Boyovut tumaniga to'gri kelmoqda.

### Faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalari soni, birlik (2019-yil yanvar-dekabr)



**Yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni, birlik  
(2019-yil yanvar-dekabr)**

2019-yil yanvar-dekabr oylarida viloyatda 568 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, ularning 48,2 foizi Guliston shahri, Sirdaryo va Xavast tumanlariga to'g'ri keladi.



**Sirdaryo viloyati Statistika  
boshqarmasi  
Sanoat statistikasi bo`limi  
Aloqa telefoni: (0371) 230-86-23**